

Toshkent davlat yuridik universiteti
Kengashi majlisining 5-sonli bayonnomasidan
KO‘CHIRMA

Toshkent shahri

2022-yil 23-aprel

Raislik qildi: A.Tashkulov - rektor

Kengash a’zolari: I.Rustambekov, N.Salayev, D.Umarov, A.Iminov, Sh.Saydullayev, D.Kamalova, B.Xodjayev, D.Umarxanova, A.Babadjanov, D.Maxkamov, B.Narimonov, K.Xakimov, D.Bazarova, A.Baratov, N.Gafurova, N.Imomov, D.Xabibullayev, X.Radjabov, Sh.Ismoilov, G.Uzakova, S.Muratayev, G.Nosirxodjayeva, Sh.Xo‘jayev, O.Toshmatov, S.Yusupov, V.Davlyatov, N.Ramazonov, S.Bozarov, I.Ergashev, A.Yakubov, A.Otajonov, S.Gulyamov, M.Utepbergenov, D.Yuldashev, A.Raxmatov, A.Idiboyev, R.Abdullayeva, J.Umarov, M.Mamatkulov, O.Toshniyozov, J.Xolbayev, A.Aliyev, M.Toshmatova, T.Eshmetov, Sh.Maxmudov, O‘.Muxamedov
B. Normatov - kengash kotibi.

Majlisga taklif etilganlar: Universitet tarkibiy bo‘lim rahbarlari.

KUN TARTIBI:

23. TDYU Axborot-resurs markazidagi universitet xodimlari va talabalari uchun pullik xizmatlarning Preyskurantini yangi tahrirda qabul qilish (**E.Xosilov axboroti**);

(A.Tashkulov, E.Xosilov)

Kun tartibidagi yigirma uchinchi masala - Toshkent davlat yuridik universiteti Kengashining 25.08.2020 yildagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan TDYU Axborot-resurs markazidagi universitet xodimlari va talabalari uchun pullik xizmatlarning Preyskurantini yangi tahrirda qabul qilish to‘g‘risida bo‘Tib, mazkur masala bo‘yicha yuridik byuro katta yuriskonsulti E.Xosilovning axboroti eshitildi.

E.Xosilov, Toshkent davlat yuridik universiteti Kengashining 25.08.2020-yildagi 1-sonli qarori bilan TDYU Axborot-resurs markazidagi universitet xodimlari va talabalari uchun pullik xizmatlarning Preyskuranti (keyingi o‘rinlarda - Preyskurant) tasdiqlanganini qayd etdi.

Mazkur preyskurantda belgilangan pullik jarimalarning chegarasi yo‘qligi sababli ayrim talabalar tomonidan e’tirozlar bildirilgani, shuningdek, Oliy ta’lim to‘g‘risidagi Nizom va universitet lokal hujjatlarida talaba va xodimlar ARMdand bepul foydalanishi mumkinligi ko‘rsatilgan holda tungi xizmatlar uchun to‘lovlar belgilangani, o‘z navbatida, mazkur to‘lov va jarimalar ARMdand foydalanish qoidalarida ko‘rsatilmagani, shu munosabat bilan Preyskurantni ilovaga muvofiq yangi tahrirda qabul qilishni, preyskurantdan xizmatlar uchun to‘lovlar chiqarilishi, jarimalarning qat’iy miqdorlari belgilanishi, preyskurant so‘zi xizmatlar bahosiga taalluqli bo‘ganligi hujjat nomini “TDYU Axborot-resurs markazidagi universitet xodimlari va

talabalari uchun jarimalar miqdorlari” deb nomlashni taklif etdi hamda yuqoridagilarga asosan Kengash a’zolaridan Nizomga kiritilayotgan o’zgartirishlarni tasdiqlab berishni so’radi.

Raislik etuvchi mazkur masala yuzasidan tayyorlangan qaror loyihasi bo’yicha kimda qanday taklif va mulohazalar borligini, agar taklif va mulohazalar bo’lmasa, kengash a’zolaridan ovoz berishlarini so’radi.

Hamma rozi, betaraf va qarshilar yo’q.

Mazkur masala bo’yicha universitet kengashi

QAROR QILADI:

1. Toshkent davlat yuridik universiteti Kengashining 25.08.2020 yildagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan TDYU Axborot-resurs markazidagi universitet xodimlari va talabalari uchun pullik xizmatlarning Preyskurantini yangi tahrirda qabul qilish to’g’risida Yuridik byuro katta yurikonsulti E.Xosilovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent davlat yuridik universiteti Kengashining 25.08.2020 yildagi 1-sonli qarorining ilovasiga o’zgartirish kiritilib, TDYU Axborot-resurs markazidagi universitet xodimlari va talabalari uchun pullik xizmatlarning Preyskuranti **8-ilovaga** muvofiq yangi tahrirda qabul qilinsin.

3. Axborot resurs markazi (X.Pirmedova) Yuridik byuro (E.Xosilov) bilan hamkorlikda mazkur Kengash qaroridan kelib chiqib universitet rektorining 2015-yil 23-apreldagi 08-95-son buyrug’i bilan tasdiqlangan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazidan foydalanish qoidalariga o’zgartirishlar kiritilishi ta’minlasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish prorektorlar A.Xashimhonov va A.Iminovlar zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi
Kengash kotibi

Asliga to’g’ri:



A.Tashkulov
B. Normatov

N. Saburov

21.08.2024-y.

**Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida
universitet talabasi yoki xodimi bo'lmagan jismoniy shaxslar
(foydalanuvchilar) uchun qo'shimcha pulli axborot kutubxona xizmatlari
PREYSKURANTI**

| № | Xizmat (tovar) turi | Miqdori | Qo'shimcha ma'lumotlar |
|----------|---|----------------|--|
| 1 | Foydalanuvchilarni ro'yxatga olish va a'zolik bileti | 1 yilga | ARM fondi, kompyuter yordamida internet xizmatlaridan foydalanish.(bazaviy hisoblash miqdorining 1 barobari) |
| 2 | Foydalanuvchilarning kutubxonada n bir marta foydalanish xizmati | 1 kun | bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi |
| 3 | Foydalanuvchilar yo'qotilgan a'zolik biletni tiklab berish xizmati | 1 marta | bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi |
| 4 | Kutubxonaning kutubxonachilik ma'lumotlar bazasidan fleshka va diskka yozish (50 Mb) | 1 marta | Qo'lyozma va nodir kitoblar fondidan tashqari |
| 5 | Kutubxonaning kutubxonachilik ma'lumotlar bazasidan fleshka va diskka yozish (50-100 M6) | 1 marta | Qo'lyozma va nodir kitoblar fondidan tashqari |
| 6 | Kutubxonaning kutubxonachilik ma'lumotlar bazasidan fleshka va diskka yozish (400 M6 - 1000 M6) | 1 marta | Qo'lyozma va nodir kitoblar fondidan tashqari |
| 7 | Adabiyotlar tanlash va dissertatsiya, diplom va ilmiy ishlarga ilova qilingan bibliografik ro'yxatni tayyorlab berish | 1 marta | bazaviy hisoblash miqdorining 2 barobari |
| 8 | Nusxa ko'chirish xizmati (Bir tomonlama, A4 formatda) | 1 dona | 300 so'm |
| 9 | Nusxa ko'chirish xizmati (ikki tomonlama, A4 formatda) | 1 dona | 500 so'm |
| 10 | Nusxa ko'chirish xizmati (Bir tomonlama, A3 formatda) | 1 dona | 600 so'm |
| 11 | Nusxa ko'chirish xizmati (ikki tomonlama, A3 formatda) | 1 dona | 1000 so'm |
| 12 | 0'UK (UDK) indeksi | 1 dona | bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi |

**TDYU Axborot-resurs markazidagi
qo'lyozmalar, noyob va alohida qiymatga ega nashrlar universitet talabasi yoki xodimi
bo'lmagan jismoniy shaxslar (foydalanuvchilar) foydalanganlik uchun
ko'rsatiladigan pullik xizmatlarning
PREYSKURANTI**

| № | Xizmat (tovar) turi | Miqdori | Universitet talabasi yoki xodimi bo'lmagan jismoniy shaxslar uchun bahosi (so'm hisobida) |
|---|--|----------|--|
| 1 | XIX asrgacha bo'lgan tipografik kitoblardan nusxa ko'chirish | 1 sahifa | 5 000 |
| 2 | XIX asr va undan keyingi davrlardagi tipografik kitoblardan nusxa ko'chirish | 1 sahifa | 4 000 |
| 3 | Jumallar va gazetalar (xorijiy adabiyotlar va davriy nashrlar) | 1 sahifa | 3 000 |

**TDYU Axborot-resurs markazidagi universitet xodimlari va talabalari uchun
jarimalar miqdorlari**

| № | Jarima turi | Talabalar uchun jarima miqdori | Xodimlar uchun jarima miqdori |
|----|--|--|--|
| 1. | F oydalanuvchilar a'zolik biletini yo'qotganlik uchun jarima | bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 5 (besh) foizi | |
| 2. | Kutubxona fondidagi adabiyotlarni ruxsatsiz olib chiqish uchun jarima | 1 dona kitob uchun BHMning 1 baravari | 1 dona kitob uchun BHMning 2 baravari |
| 3. | Kutubxona fondidagi adabiyotlarni belgilangan muddatidan kech qaytarish uchun jarima | 1 kunga BHMning 5 foizi, biroq BHMning 2 baravari-dan oshmasligi lozim. | 1 kunga BHMning 10 foizi, biroq BHMning 3 baravari-dan oshmasligi lozim. |

Eslatma: Uzrli sabablarga ko'ra (betob bo'lganda, xizmat safarlariga ketganda va boshqa sabablar) kitoblarni vaqtida topshirilmaganda tatbiq etilmaydi.